

Go'daklarning so'yilishi



14:00 / 08.08.2021 3960

Bir qibtiy folbin Fir'avn huzuriga kelib shunday dedi:

- «Bani Isroilda bir bola tug'iladi. Sening mulking uni qo'lga o'tadi». Fir'avnning jinniligi qo'zidi. Jallodlariga buyurdiki, Bani Isroilda tug'ilgan har bir go'dak qilichdan o'tkazilsin! Fir'avn o'zini mutloq shoh deb hisoblagani sababli, xohlagan kishisini o'ldirish yoki o'ldirmaslikka o'zini haqli deb bilardi. Xuddi bir cho'pon kabiki, suruvidan xohlagan qo'yini ushlab so'yishi yoki so'yimasligi mumkin edi. Fir'avn jallodlari butun Misr bo'ylab tug'ilgan o'g'il bola qidirib tarqaldilar. Ular qaerda, Bani Isroil qabilasida bir chaqaloq dunyoga kelganidan habar topsalar, go'dakni qo'ydek bo'g'izlardilar. O'rmonda bo'rilar erkin yurardi. O'lkada ilon-chayonlarga hech kim hech narsa demasdi. Lekin Fir'avn mamlakatida tug'ilgan Bani Ya'qub go'daklariga yashash imkoni yo'q edi. Minglab chaqaloqlar ota-onalarining ko'z oldida bo'g'izlandi. Bani Isroilda farzand

tugʻilgan kun qiyinchilik va mashaqqatli boʻlar edi. Bu kun mana shu oila uchun (shod-xurramlik emas), mahzunlik va koʻzyoshlar kuni boʻlardi.

Bani Isroilda farzand tugʻilgan kun ta'ziya va marsiyaga aylanar edi. Bir kunning oʻzida yuzlab bolalar qurbon qilinar edi. Bu xuddi qurbonlik kuniga oʻxshar ediki, unda yuzlab qoʻy-echkilar va mollar qurbonlik qilinar edi.

«Darhaqiqat Fir'avn (Mus) yerida tugʻyonga tushib uning aholisini boʻlak-boʻlak qildi. U ulardan bir toifani (ya'ni, Bani Isroilni) xorlab, oʻgʻillarini soʻyar, ayollarini qoldirar edi. Albatta u buzgʻunchi kimsalardan boʻldi» (*Qasos surasi, 4-oyat*).

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad